



**ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW**

journal homepage:  
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

## REFORMS AIMED AT WOMEN'S ISSUES IN NEW UZBEKISTAN

**Aziza Sh. Khamdamov**

Researcher

National University of Uzbekistan  
Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** state program, women, family, reform, law and legal documents, socio-economic, equality, vocational, educational, modern education.

**Received:** 10.02.24

**Accepted:** 12.02.24

**Published:** 14.02.24

**Abstract:** The article reveals the role of women in society in Uzbekistan, their participation in socio-cultural and cultural processes, the constitutional status of women, the social nature of their role in the educational process, the issues of attention to the education of girls.

## YANGI O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR MASALASIGA QARATILGAN ISLOHOTLAR

**Aziza Sharif qizi Xamdamova**

tadqiqotchi

O'zbekiston Milliy universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** davlat dasturi, xotin-qizlar, oila, islohot, qonun va qonunosti hujjatlar, ijtimoiy-iqtisodiy, teng-huquqlilik, kasbhunar, ta'lif-tarbiya, zamonaviy ta'lif.

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy-madaniy va ma'naviy jarayonlardagi ishtiroki, xotin-qizlarning konstitusiyaviy maqomi, ta'lif jarayonida ular rolining ijtimoiy mohiyati, qizlarning ta'lif olishiga e'tibor masalalari ochib berilgan.

## РЕФОРМЫ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА РЕШЕНИЕ ЖЕНСКИХ ПРОБЛЕМ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

**Азиза Шарифовна Хамдамова**

Исследователь

Национального университета Узбекистана  
Ташкент, Узбекистан

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** государственная программа, женщины, семья, реформа, закон и правовые документы, социально-экономические, равенство, профессиональное, образовательное, современное образование.

**Аннотация:** В статье раскрывается роль женщин в обществе Узбекистана, их участие в социокультурных и культурологических процессах, конституционный статус женщин, социальный характер их роли в образовательном процессе, вопросы внимания к образованию девочек.

### KIRISH

Bugungi kunda mamlakat aholisining deyarliyarmini tashkil qilayotgan xotin-qizlarga davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor, konstitusion huquqlarining tengligi, shu jumladan, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy jarayonlarda ishtirokini o'rganishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Kundalik hayotimizda ko'p iste'mol qilinadigan tushuncha borki, bu inson huquq va manfaatlari, ularni himoya qilish mexanizmlaridir. Bular o'z ichida tarmoqlarga bo'linib, jinslar o'rtaсидаги munosabatlarda me'yoriy muvozanatni saqlaydi. Kishilik jamiyatijitimoiy jarayonlar ta'sirida rivojlanib kelmoqda. Jamiyatdagi barqaror munosabatlarni saqlab turish uchun davlat tomonidan o'rnatilgan qonun-qoidalar amalda o'z tasdig'ini topishi zarur. Jinslar o'rtaсидаги farqlarning tashkil topishi ijtimoiylashtirish jarayoni bilan bog'liq ekan, bu individ tomonidan jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida faoliyat yuritish imkonini beruvchi bilim, me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonlarni vujudga keltiradi. Ijtimoiylashtirishning asosiy institutlari sirasiga oila, maktab, tengdoshlar guruhi, atrofdagilar, jumladan qo'shnichilik munosabatlari, ota-onal, do'stlar va boshqalar kiradi. Umuman olganda, tegishli madaniy-me'yoriy andozalarni o'zlashtirish, qabul qilish va ifodalash jarayoni sodir bo'ladigan muhitdir.

### ASOSIY QISM

Ijtimoiylashuv jarayonlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar borki, ular aynan sodir bo'layotgan jarayonlarni qay yo'sinda borishi va istiqboldagi rejalarini belgilab beradi. Bular: mintaqqa aholisiga xos xarakter-xususiyatlar bo'lib, tarixan shakllangan etnik qadriyatlar, an'analar hamda din omili ta'sirida vujudga keladi. Yer yuzidagi har bir mintaqada ushu xususiyatlar mavjud bo'lib, ular bir-birini takrorlamaydi. Xususan, Yevropa qit'asi aholisining dunyoqarashi, mintaliteti sharq mamlakatlaridan tubdan farq qiladi. Bu kabi farqlar mintaqalar kesimida yanada xilma-xillikni kasb etadi. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida sodir bo'lgan ijtimoiylashuv jarayonlari mintaqqa aholisi xususiyatlari, tarixiy jarayonlarni qay tarzda sodir bo'lganligini o'zida aks etib turadi.

Mintaqaga xos omillar sirasiga: an'anaviylik, qadriyatlarga sodiqlik, sharqona mintalitet, oila, nikoh, oilaviy munosabatlarni boshqaruvda ustunlik qiluvchi erkakning roli, unga

jamiyatdagi asosiy qatlam sifatida qarash kabi xususiyatlar kiradi. Ushbu munosabatlarni yanada sayqallanib, hozirgi qiyofasi shakllangunga qadar sodir bo‘lgan jarayonlar, bosqinlar, mustamlakachilik tuzimini ta’siri mavjud. Sovet ittifoqi parchalangach, ungacha shakllanib bo‘lgan ijtimoiy tuzum, hayot tarzida katta burilish sodir bo‘ldi. Jamiyat ijtimoiy hayotida bir qancha muammolar vujudga keldi. Xotin-qizlar masalasi hamda ularning jamiyatda tutgan o‘rnini bir qancha munozaralarga sabab bo‘ldi [1].

Xususan, muammolar quydagi sohalarda yaqqol namoyon bo‘ldi:

- Siyosiy huquqlar va ulardan foydalanish imkoniyatlari;
- Alovida shaxs sifatida va oila a’zosi sifatidagi ayollarning yuridik huquqlari;
- Xotin-qizlarning ta’lim olish va o‘qitishning turli shakllaridan, jumladan kasb-hunar ta’limidan foydalanishlari;
- Mehnat faoliyatlari Mintaqqa xalqlari xususan, O‘zbekiston hukumatiga ham tegishli ushbu masalalar davlat siyosatining keyingi yo‘nalishini belgilashda asosiy omil bo‘ldi [2].

Xususan, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng Respublikada qisqa davr ichida juda ko‘p sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ldiki, bular iqtisodda, ijtimoiy jarayonlarda va ayniqsa, xotin-qizlarning jamiyat va oiladagi mavqeyida o‘z ifodasini topdi. O‘zbekistondagi yangi siyosiy tizimda shaxs va davlatning o‘zaro munosabatlariga ustuvorlik berilib, ular bir-biri bilan huquq va majburiyatlar vositasida chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy-siyosiy va huquqiy munosabatlarni mutanosiblashtirshning asosiy mexanizmi bu - demokratiya, O‘zbekiston hududida istiqomat qilayotgan barcha aholining huquqlarini kafolatlariga qaratilgan [3].

Mamlakatda inson huquqlari jamiyatni demokratlashtirish muammolari ilmiy zehn, xalqning tarixan tarkib topgan an’analari, urf-odatlari, ma’naviy qadriyatlarini inobatga olgan holda hal etildi. Jamiyat fuqarolik-huquqiy davlat qurish yo‘lidan borar ekan, birinchi navbatda inson manfaatlari, jamiyat va shaxs ehtiyojlariga xizmat qilish bosh masala bo‘lib qolishiga e’tibor qaratildi [4].

Xususan, 1999-yil 14-apreldagi 760-I-sonli “Xotin-qizlarga qo‘sishimcha imtiyozlar to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni [5] , 2003 yil 29-avgust “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risidagi” Qonunning 22-moddasi, shuningdek, 1995-yil 2-mart PF-1084-sonli “O‘zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlar rolini oshirish choralar to‘g‘risida” Prezident Farmoni, 2010-yil 30-sentabrdagi PF-4245-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” hamda 2004- yil 25-may PF-3434-sonli “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmonlarida xotin-qizlar huquqlarining ta’minlanishi, ularning jamiyat

siyosiy va madaniy qatlamidagi ishtiroki, ayollar huquqlari kamsitilishiga qarshi ko‘riladigan chora-tadbirlar mustaqilligimizning ilk yillaridanoq o‘z samarasini ko‘rsatdi [6].

Bu islohotlar so‘nggi yillarda O‘zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollarning jamiyatdagi mavqeyini oshirish, oilani mustahkamlash borasida bir qator muhim qarorlar: 2018- yil 2-fevral PF- 5325-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [7], 2004- yil 25-may PF-3434-sonli “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlat to‘g‘risida”gi Farmon va boshqa normative-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi bilan diqqatga sazovordir.

Yurtimizda olib borilayotgan bu kabi islohotlar xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oilani mustahkamlash, ayniqsa, nikohning barqaror bo‘lishi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, farzand tarbiyasida ota-onaning huquq va majburiyatlari nafaqat O‘zbekiston Respublikasi balki, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari siyosatining o‘ziga xos jihatni sifatida qaraladi. Mustaqillikdan keyingi islohotlar natijasi o‘laroq, O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchilardan bo‘lib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya” (The Convention on the Elimination of all Forms of Discrimination Against Women) ga qo‘sildi [8].

1995-yilda “Tinchlik, taraqqiyot va tenglik” shiori ostida Pekin shahrida o‘tkazilgan Butunjahon xotin-qizlarining konferensiyasida mamlakatimiz xotin-qizlari vakillari ishtirok etib, xotin-qizlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan Pekin deklaratsiyasi platformasi (dastur) ga qo‘sildi. Xotin-qizlar teng huquqliligi va gender masalalarining iqtisodiy hayot bilan uzviy bog‘liqligini BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil iyun oyidagi “Ayollar 2000: Gender tenglik, rivojlanish va jahon XXI asrda” maxsus sessiyasiga tayyorgarlik chog‘ida Jahon banki tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot doirasida ham isbotlab berilgan [9].

Davr nuqtai nazaridan qaralganda, gender tengligi, gender masalalari tushunchalari Markaziy Osiyo mintaqasida rivojlanishning yangi bosqichini vujudga keltirdi. Yillar davomida olib borilgan izlanishlar bu turdagи rivojlanish amaliyotining tahlillari xotin-qizlar ko‘pincha rivojlanish jarayonlaridan chetda qoladi, va hatto ishtirok etgan taqdirda ham rivojlanish loyihalari natijalari erkaklar va xotin-qizlarga turlicha ta’sir ko‘rsatadi degan xulosalarni keltirib chiqardi. Shu tariqa ushbu mintaqada xotin-qizlarning rivojlanishda ishtirokiga yondashuvni qayta ko‘rib chiqish va rivojlanish loyihalarini xotin-qizlar va bolalar ahvoliga salbiy ta’sirini yengib o‘tish zarurati vujudga keldi.

Qarama-qarshi jins vakillari o‘rtasidagi bu kabi tafovutlar davlatning ichki siyosati, islohotlar ko‘lami, ulardan kutilayotgan maqsad hamda millatning etnik xususiyatlarga bog‘liq

jihatlarni ham qamrab olishiga ko‘ra Markaziy Osiyo mintaqasi ajralib turadigan hududga aylandi. Mintaqaning Qozog‘iston va Qirg‘iziston mamlakatlari “kelin o‘g‘irlash” amaliyoti hanuzgacha saqlanib qolgan. Tojikiston hukumati tomonidan ayollarga kiyinish tartibi belgilab berilganligi va Xotinqizlar va oila ishlari qo‘mitasi tomonidan kiyinish tartibi qo‘llanmasi chop etilganligi hozirgi vaqtda ham ayollar masalalari bilan jiddiy muammolar mintaqaning asosiy hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifasi ekanligini ko‘rsatadi.[10]

Rivojlantirish loyihalarining erkaklar, xotin-qizlar, o‘s米尔ar, qariyalar va boshqalarga tabaqlashtirilgan ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar mintaqa aholisi rivojlanishining ijobjiy va salbiy omillarini bat afsil ko‘rib chiqish, tengsizlik manbalarini aniqlash va rivojlanishdagi teng bo‘lmagan tarzda ishtirok etishga olib keluvchi sabablarni bartaraf etish usullarini o‘rganish asosiy vazifa etib belgilandi.

Mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu vazifalarni samaradorligini belgilashda yuqori natija ko‘rsatdi. Inson huquqlari, uning sha’ni, qadr-qimmati, erkinliklarini ta’minalashga qaratilgan islohotlar samarasini mintaqa mamlakatlarida turlicha natijalarni ko‘rsatdi.

## XULOSA

Xususan, O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi jihatidan barcha mehnat resurslarining 48% tashkil etadi.[11] 2013-yil holatiga ko‘ra Markaziy Osiyoda mamlakatlarida siyosiy sohadagi ishtiroki parlamentdagi o‘rnlari bo‘yicha Tojikiston eng past ko‘rsatkich- 14,7% ni tashkil qiladi. Qozog‘iston- 23%, Qirg‘iziston- 23% bilan farqlanadi.[12]

Bu ko‘rsatkich O‘zbekiston Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tarkibida 22%, Senatda 15% ni ayollar tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlar bugungi kunda ijobjiy tomonga o‘zgarib xususan, O‘zbekistonda Qonunchilik palatasida 32%, Senatda 25%ga ko‘tarilgan [13].

Shunga doir islohotlar natijalari jamiyatda hukm suryotgan farovonlikni ta’minalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu ma’lumotlar orqali Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlar teng huquqliligining kafolatlari, jamiyat hayotidagi o‘rni, davlat boshqaruv sohasidagi faoliyatlarini, xotin-qizlar bandligini ta’minalash, ularni kasbiy salohiyatlarini yanada rivojlantirish, jamiyatdagi barcha sohalar doirasida xotin-qizlar faolligini oshirishga doir bosqichlarni o‘rganish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

- jamiyatda shakllangan “ayollarga xos kasblar” tushinchasini muomaladan chiqarish yoki uning turlarini kengaytirish, erkin kasb tanlashga imkon yaratish;
- uy vazifalari, bola tarbiyalash kasbiy faoliyatga to‘siq bo‘lmasligi uchun masofadan turib ishish faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

- nodavlat tashkilotlari bilan keng hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali xotin-qizlarda ijodkorlikni rag‘batlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqish. Bu orqali o‘z qobiliyatlarini yanada rivojlantirish (uy sharoitida), namoyon qilishiga imkon yaratish;
- huquqiy ta’limda xotin-qizlar savodxonligini oshirish maqsadida loyihalarni yo‘lga qo‘yish, siyosiy karyera, davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish, ularga mos ish o‘rinlari ustida yangicha yondashuv;
- oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarni kelishuv asosida amalga oshirish, erkak va ayol muammoli vaziyatlarda tenglik prinsipini o‘zaro hurmat va bir-birini tushinish tarzida amalga oshirish;
- nasl, farzand tarbiyasi masalalarida tenglikka rioya qilgan holda, ayolning jamiyatdagi o‘rnini topishda, kasb-hunar masalalarida qo‘llab-quvvatlash;
- nohaqlikka uchragan, zo‘ravonlik qurbaniga aylangan xotin-qizlar bilan davlat, jamiyat hamkorligini yanada kuchaytirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning tizimli mexanizmini ishlab chiqish kabilardir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Tansiqboyeva G. Ayollarning diskriminatsiya qilinishini bartaraf etish – ularning amaldagi tengligining zaruriy sharti//Ayol huquqi va erkinliklari. – T.: Adolat, 2002.- B.23
2. Saidov A.X Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar. – Toshkent: Adolat. 2004. – B.12.
3. Saidov A. Ayollar huquqlari bo‘yicha bo‘yicha xalqaro va milliy qonun hujjatlari rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari. - Toshkent,1999. – B.82
4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 17-avgustdagи “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni
5. Lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarga qo‘srimcha imtiyozlar to‘g‘risida”gi qonun <https://lex.uz/docs/-10550>. (So‘nggi murojaat-08.04.2020)
6. Mo‘minovA.R. Tillaboyev M. A Inson huquqlari. Ayollar huquqlari va erkinligini xalqarohuquqiy himoya qilish. //T.: Adolat. 2013.- B.368.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 2-fevraldagи “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF5325 sonli Farmoni
8. Shamsiyeva M.X. Gender tenglik// Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Toshkent, 2015. – B.32
9. Kim L. Gender pedagogikasining amaliy jihatlari. - B-300- 301
10. Central.asia.news. Markaziy Osiyoda xalqaro xotin-qizlar kunining nishonlanishi yangi bosqichda <https://central.asianews.com/uz-Latn/articles/cnmi-ca/features/2019/03/14/feature-01>

Xalqaro xotin-qizlar kuni Markaziy Osiyoda inson huquqlariga e'tiborni yangiladi. (so'nggi murojaat:20.05.2020

11. Mamlakatning demokratik yangilanishi va modernizatsiyada ayollarning roli: O‘zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot” konferensiyasi. T.Norboyeva. Toshkent-2018 <http://central.asia-news.com-markaziy-osiyo-mamlakatlaridaxotin-qizlar-xalqaro-kuni-nishonlanadi-asia-news.com> (so'nggi murojaat-02.02.2020)

12. Central.asia-news.com.Xalqaro xotin-qizlar kuni Markaziy Osiyoda inson huquqlariga e'tiborni yangiladi. <https://central.asia-news.com/ayollar-huquqlari> (so'nggi murojaat-06.03.2020)

13. Siyosiy sohadagi ayollar mavqeyi. <https://daryo.uz/2013/08/19/o‘zbekiston-parlamentdagi-ayollar-sonibo‘yicha-mdh-davlatlari-orasida-tortinchi-o‘rinni-egalladi> (so'nggi murojaat-09.02.2020)